



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI  
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI

## JIZZAX VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma'lumot  
2024- yil yanvar-oktabr*

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi*

*Тел. 72-221-51-26*

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

## Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-oktabr oyi, foizda)




2024- yil 1- noyabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 7 187 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 61 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 7 126 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.


**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

**Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati  
dinamikasi (yanvar-oktabr, mlrd so'mda)**



So'nggi 5 yillik (2020- 2024- yillar)da chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2022- yilning mos davriga nisbatan 112,7 % ni tashkil qildi.

**Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari,  
oylar kesimida  
(2023- 2024- yillar)**



2024- yilning yanvar-oktabr oyida o'sish sur'ati **108,9 %** ni tashkil qildi.



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar-oktabr oyida respublikaning chakana savdo tovar aylanmasi 7 889,2 mlrd so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan 108,9 % ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 440,7 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 101,3%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 5 511,9 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 107,7%), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 936,6 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 112,8 %) tashkil etdi.

**Hududlar bo'yicha chakana savdo hajmi va o'sish sur'atlari**  
(2024- yil yanvar-oktabr oyi)

	Jami, mlrd so'm	2023- yil yanvar-oktabr oyiga nisbatan, foizda
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>7 889,2</b>	<b>108,9</b>
Jizzax sh	1 897,1	109,1
tumanlar :		
Arnasoy	188,7	103,8
Baxmal	724,4	110,3
G'allaorol	856,5	109,6
Sh Rashidov	866,2	115,6
Do'stlik	374,0	106,0
Zomin	864,9	106,8
Zarbdor	345,6	105,3
Mirzacho'l	264,3	107,2
Zafarobod	166,0	105,2
Paxtakor	460,7	106,8
Forish	374,0	109,3
Yangiobod	103,1	106,3

2024- yilning yanvar-oktabr oyida 2023- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan viloyatning Sh.Rashidov (115,6 %), Baxmal (110,3 %) tumanlari va G'allaorol tumanida (109,6 %) chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi (Ulushi, foizda)



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Jizzax shahri 25,3 % bilan 1 897,1 mlrd so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Yangiobod tumani 1,4 % bilan 103,1 mlrd so'mni tashkil etdi.

2023- yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.




#### Hajmi, mlrd. so'm

Jizzax sh.	1 897,1
Sh.Rashidov	866,2
Zomin	864,9
G'allaorol	856,5
Baxmal	724,4
Paxtakor	460,7
Forish	374,0
Do'stlik	374,0
Zarbdor	345,6
Mirzacho'l	264,3
Arnasoy	188,7
Zafarobod	166,0
Yangiobod	103,1




## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024- yilning yanvar-oktabr oyida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 7 448,5 mlrd so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan 9,0 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 94,4 % ni tashkil etdi.



## Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan 1,3 % ga o'sdi va 440,7 mlrd so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 5,6 % ulushiga to'g'ri keldi.




## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)

Arnasoy	1,1	98,9
Baxmal	1,3	98,7
G'allaorol	3,2	96,8
Sh Rashidov	1,5	98,5
Do'stlik	0,6	99,4
Zomin	16,8	83,2
Zarbdor	0,7	99,3
Mirzacho'l	2,5	97,5
Zafarobod	1,0	99,0
Paxtakor	0,4	99,6
Forish	1,3	98,7
Yangiobod	1,2	98,8
Jizzax sh.	8,2	91,8


 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Paxtakor (99,6 %), Do'stlik (99,4 %) va Zarbdor (99,3 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 5,6 % ni tashkil etib, eng katta ulush Zomin (16,8 %), Jizzax shahri (8,2 %), G'allaorol (3,2 %) va Mirzacho'l (2,5 %) tumanlarida kuzatildi.




 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



## AHOLI JON BOSHIGA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI (Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*)



2024- yilning yanvar-oktabr oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 5 194,0 ming so'm (2023- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan 106,7 %)ni tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Jizzax shahri (9 609,8 ming so'm), Paxtakor (5 652,8 ming so'm) va Do'stlik (5 319,4 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.






Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-oktabr), foizda**



- Dehqon bozorlari



- Chorva bozorlari

**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.


**Hududlar kesimida uyushmagan savdo hajmi va o'sish sur'atlari  
(2024- yil yanvar-oktabr)**

	<b>Jami, mlrd. so'm</b>	<b>2023- yil yanvar- sentabr oyiga nisbatan, foizda</b>
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>1 936,6</b>	<b>112,8</b>
Jizzax sh	397,9	117,0
tumanlar :		
Arnasoy	7,9	59,1
Baxmal	321,5	113,0
G'allaorol	258,9	138,4
Sh Rashidov	126,4	78,6
Do'stlik	104,3	118,6
Zomin	249,1	104,5
Zarbdor	151,8	109,7
Mirzacho'l	78,9	112,1
Zafarobod	0,0	0,0
Paxtakor	111,2	115,4
Forish	98,3	132,5
Yangiobod	30,4	116,0


\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar  
aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda  
(2024- yil yanvar-oktabr)**















**Hududlar kesimida uyushmagan  
savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so'm  
(2024- yil yanvar-oktabr)**



Viloyat bo'yicha 2024- yilning yanvar-oktabr oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 936,6 mlrd so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan 112,8% ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 943,4 mlrd so'mni (126,5%), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 993,2 mlrd so'mni tashkil etdi (114,0 %).












2024-yilning yanvar-oktabr oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 103,6 mlrd so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (32,8 mlrd so'm) to'g'ri keldi.

**Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi**

<p><b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b></p> <p><b>32,8 mlrd so'm</b></p>  <p><b>31,7 %</b></p>	<p><b>Non va non mahsulotlari</b></p> <p><b>14,5 mlrd so'm</b></p>  <p><b>14,0 %</b></p>	<p><b>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</b></p> <p><b>9,4 mlrd so'm</b></p>  <p><b>9,1 %</b></p>
<p><b>Tovuq go'shti</b></p> <p><b>4,6 mlrd so'm</b></p>  <p><b>4,4 %</b></p>	<p><b>Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</b></p> <p><b>4,5 mlrd so'm</b></p>  <p><b>4,3 %</b></p>	<p><b>Tuxum</b></p> <p><b>5,1 mlrd so'm</b></p>  <p><b>4,9 %</b></p>
<p><b>Ziravorlar</b></p> <p><b>6,2 mlrd so'm</b></p>  <p><b>6,0 %</b></p>	<p><b>Sut va sut mahsulotlari</b></p> <p><b>3,5 mlrd so'm</b></p>  <p><b>3,4 %</b></p>	<p><b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</b></p> <p><b>15,5 mlrd so'm</b></p>  <p><b>15,0 %</b></p>
<p><b>Tuzlamalar</b></p> <p><b>2,2 mlrd so'm</b></p>  <p><b>2,1 %</b></p>	<p><b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b></p> <p><b>0,3 mlrd so'm</b></p>  <p><b>0,3 %</b></p>	<p><b>Nooziq-ovqat tovarlar</b></p> <p><b>5,0 mlrd so'm</b></p>  <p><b>4,8 %</b></p>

2024- yilning yanvar-oktabr oyida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 93,3 mlrd so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 65,5 mlrd so'm, qo'y va echkilar – 26,0 mlrd. so'mni, otlar – 1,5 mlrd so'mni, parrandalar – 0,3 mlrd so'mni tashkil qildi.

**Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari va parrandalar savdosi hajmi va ulushi**

<p><b>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</b></p> <p><b>33,6 mlrd so'm</b></p>  <p>36,0 %</p>	<p><b>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</b></p> <p><b>16,9 mlrd so'm</b></p>  <p>18,1 %</p>	<p><b>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</b></p> <p><b>15,0 mlrd so'm</b></p>  <p>16,1 %</p>
<p><b>Qo'ylar</b></p> <p><b>22,4 mlrd so'm</b></p>  <p>24,0 %</p>	<p><b>Otlar</b></p> <p><b>1,5 mlrd so'm</b></p>  <p>1,6 %</p>	<p><b>Echkilar</b></p> <p><b>3,6 mlrd so'm</b></p>  <p>3,9 %</p>
<p><b>Kurka, o'rdak, g'oz</b></p> <p><b>0,2 mlrd so'm</b></p>  <p>0,2 %</p>	<p><b>Tovuqlar</b></p> <p><b>0,1 mlrd so'm</b></p>  <p>0,1 %</p>	<p><b>Quyionlar</b></p> <p><b>0,0 mlrd so'm</b></p>  <p>0,0 %</p>
<p><b>Qushlar</b></p> <p><b>0,0 mlrd so'm</b></p>  <p>0,0 %</p>		

## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- noyabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 047 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 046 tani tashkil qildi.

### Hududlar kesimida umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi va o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-oktabr)

	Jami mlrd so'm	2023- yil yanvar- oktabr oyiga nisbatan, foizda
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>4 303,7</b>	<b>111,8</b>
Jizzax sh	110,5	101,2
tumanlar :		
Arnasoy	4,3	101,9
Baxmal	18,2	102,6
G'allaorol	18,0	101,6
Sh Rashidov	57,3	102,0
Do'stlik	7,9	101,7
Zomin	49,9	229,0
Zarbdor	13,5	101,2
Mirzacho'l	6,0	102,0
Zafarobod	1,9	101,8
Paxtakor	7,9	101,8
Forish	8,1	101,8
Yangiobod	2,3	101,3

2024- yilning yanvar-oktabr oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 4 303,7 mlrd so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 111,8 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 90,4 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.


## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

(jismoniy shaxslar hisobga olinmagan holda)

	<b>Hajmi, mlrd so‘m</b>	<b>Ulushi, Foizda</b>
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>11 245,6</b>	<b>115,6</b>
Jizzax sh	7 027,8	131,2
tumanlar :		
Arnasoy	3,3	140,1
Baxmal	2 628,0	106,2
G‘allaorol	874,8	782,3
Sh.Rashidov	412,4	28,6
Do‘stlik	3,0	140,1
Zomin	251,7	83,4
Zarbdor	0,4	140,1
Mirzacho‘l	13,5	140,1
Zafarobod	0,9	140,1
Paxtakor	8,8	140,1
Forish	19,4	108,9
Yangiobod	1,6	140,1


Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Jizzax shahri (7 027,8 mlrd so‘m), Baxmal (2 628,0 mlrd so‘m) va G‘allaorol (874,8 mlrd so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd so'm)



2024- yilning yanvar-oktabr oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 11 245,6 mlrd so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 15,6 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 7 435,2 mlrd so'm (o'sish sur'ati – 5,1 m. %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 3 810,4 mlrd so'm (o'sish sur'ati – 47,6 %)ni tashkil qildi.


### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'atlari, foizda





**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’i nazar qiymati.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar-oktabr oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 3 575,5 mlrd so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 53,2 % ga o‘sdi.

## Savdo aylanmasi va ulushi

14,8 % **530,4** mlrd. so‘m

**Yirik korxonalar**

85,2 % **3 045,1** mlrd. so‘m

**Mikrofirma va kichik korxonalar**

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 3 045,1 mlrd so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 2,0 m. % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 85,2 % ni tashkil qildi.

## Ulgurji savdo aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-oktabr)

	Jami mlrd so'm	2023- yil yanvar- oktabr oyiga nisbatan, foizda
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>3 575,5</b>	<b>153,2</b>
Jizzax sh	2 102,9	197,9
tumanlar :		
Arnasoy	45,0	100,6
Baxmal	61,7	30,7
G'allaorol	110,0	140,6
Sh Rashidov	187,7	96,0
Do'stlik	39,2	66,5
Zomin	280,1	101,0
Zarbdor	61,7	86,0
Mirzacho'l	12,6	93,9
Zafarobod	12,9	88,9
Paxtakor	12,8	95,3
Forish	337,6	1 758,1
Yangiobod	5,9	89,4

2024- yil 1- noyabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 1 344 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 22 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 322 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Forish (17,6 m. %), Jizzax shahri (197,9 %) va G'allaorol (140,6 %) tumanlarida kuzatildi.